

BOSHLANG'ICH SINIF O'QUVCHILARINING INTELLEKTUAL SALOHIYATINI BAHOLASHDA IQ TESTLARINING ROLI VA AHAMIYATI

Davlatova Saidaxon Tojimuhammadovna

*Qo'qon Universiteti Ta'lim
kafedrası katta o'qituvchisi*

Annotatsiya. Ushbu maqolada boshlang'ich sinf o'quvchilari uchun IQ testlarining ahamiyati yoritilgan. IQ testlari orqali o'quvchilarning aqliy salohiyatini erta aniqlash, ularning individual imkoniyatlariga mos ta'lim strategiyalarini tanlash imkoniyati ochiladi. Shuningdek, testlar natijasida o'quvchilarning mustaqil fikrlash, muammoni hal qilish, eslab qolish va mantiqiy xulosa chiqarish ko'nikmalari rivojlanadi. Maqolada IQ testlarining tarixi, ularning ta'limdagi o'rnini, ayniqsa matematika darslarida qo'llanishi hamda psixologik va pedagogik jihatlarini tahlil etilgan. Ilmiy qarashlar va mahalliy tajribalar asosida IQ testlarining boshlang'ich ta'limda keng qo'llanilishi ta'lim sifatini oshirishda muhim omil sifatida ko'rsatilgan.

Kalit so'zlar: IQ (Intellekt ko'effitsienti), Stanford-Binet testi, psixologik diagnostika, differensial yondashuv, intellektual salohiyat, verbal-mantiqiy testlar, vizual testlar.

Аннотация. В данной статье рассматривается значение IQ-тестов для учеников начальных классов. IQ-тесты позволяют на раннем этапе выявить интеллектуальные способности учащихся и выбрать соответствующие образовательные стратегии. Также подчеркивается, что такие тесты способствуют развитию у детей навыков логического мышления, решения проблем, памяти и умения делать выводы. В статье анализируются история IQ-тестов, их роль в системе образования, особенно при обучении математике, а также психологические и педагогические аспекты их применения. На основе научных взглядов и местного опыта подчеркивается, что использование IQ-тестов в начальном образовании является важным фактором повышения качества обучения.

Ключевые слова: IQ (Интеллектуальный коэффициент), тест Стэнфорд–Бине, психологическая диагностика, дифференцированный подход, интеллектуальный потенциал, вербально-логические тесты, визуальные тесты.

Annotation . This article explores the importance of IQ testing for primary school students. IQ tests help identify students' intellectual potential at an early stage and enable educators to select appropriate teaching strategies tailored to individual abilities. The article emphasizes how these tests support the development of logical thinking, problem-solving skills, memory, and reasoning. It also examines the

historical background of IQ testing, its role in the educational process—especially in mathematics instruction—and considers both psychological and pedagogical perspectives. Based on scientific viewpoints and local practices, the article concludes that integrating IQ tests into primary education is a key factor in improving educational quality.

Keywords: IQ (Intelligence Quotient), Stanford-Binet test, psychological diagnostics, differentiated approach, intellectual potential, verbal-logical tests, visual tests.

*“Najot ta’limda, najot tarbiyada,
najot bilimda”.*

Sh.M.Mirziyoyev

XXI asr texnologiya davri. Bugungi kun ta’limining asosiy maqsadlaridan biri zamonaviy ta’lim tizimida yuqori sifatli texnologiyalarni joriy etib, ta’lim samaradorligini oshirish va ta’lim tizimini takomillashtirishdan iboratdir. Bugungi kunda ta’lim jarayonini to’g’ri va samarali tashkil qilishda innovatsion texnologiyalar, texnik vositalarning, jumladan, zamonaviy texnologiyalarning o’rni beqiyosdir¹. Shu jumladan yurtboshimizning “Kompyuterlashtirishni yanada rivojlantirish va axborot kommunikatsiya texnologiyalarini joriy etish to’g’risida” (2002 yil), “O‘zbekiston respublikasining jamoat ta’lim axborot tarmog‘ini tashkil etish to’g’risida” (2005 yil), “Zamonaviy axborot kommunikatsion texnologiyalarini yanada rivojlantirish va joriy etish chora-tadbirlari to’g’risida” (2012 yil) gi qaror va farmonlarida ham o‘z aksini topgan². Ushbu texnologiyalar, o‘quv-uslublarni yanada muntazam, qiziqtiradigan va interaktiv qilish orqali o‘quvchilarning ma’lumotlarini oshirish va ularga ta’limning har qanday sohasida amaliy tajriba olish imkoniyatini beradi. Bu kabi qulayliklar o‘quvchilarda o‘rganishga bo‘lgan motivatsiyani kuchaytiradi hamda ta’lim jarayonini yanada qiziqarli qiladi. Bu esa ularning o‘zlarini rivojlantirishiga va zamonaviy sohalarda muvaffaqiyatga erishishiga yordam beradi. Yurtimizda umumta’lim maktablarini zamonaviy innavatsion texnologiyalar bilan jihozlash ishlari olib borilmoqda. Bu jarayon esa, boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z kasbiy faoliyatlariga ijodkorona yondashuvlarini talab etadi.

IQ (Intelligence Quotient – intellekt koefitsienti) tushunchasi ilk bor XX asr boshlarida fransuz olimi Alfred Binet tomonidan ilgari surilgan. 1905-yilda Binet va uning hamkori Teodor Simon birinchi bor aqliy rivojlanishni baholovchi testni ishlab chiqdilar. Ushbu test dastlab fransuz maktablarida o‘quvchilarning rivojlanish darajasini aniqlash va ularga individual yondashuvni yo‘lga qo‘yish maqsadida

¹ Solodovnikova, E. A., & Kurilova, I. A. (2020). Digital Technologies in Modern Education. *European Proceedings of Social and Behavioural Sciences*, 113, 178–183.

² O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining qarorlari: PQ–1730-son, 6-iyun 2002-yil; PQ–1981-son, 23-dekabr 2005-yil; PQ–1730-son, 21-mart 2012-yil. // Lex.uz — Qonun hujjatlari milliy bazasi.

qo'llanilgan³. Keyinchalik, 1912-yilda nemis psixologi Uilyam Shtern "IQ" atamasini fanga kiritdi⁴. U bolaning aqliy yoshi bilan haqiqiy yoshini solishtirish orqali IQ ni hisoblash formulasini taklif qildi. Bu yondashuv psixologiyada muhim burilish yasab, inson intellektini ob'ektiv ravishda baholash imkonini berdi. IQ testlari XX asr davomida turli shakllarda takomillashdi. Ayniqsa, AQShda 1916-yilda Stenford universiteti olimlari tomonidan ishlab chiqilgan *Stanford-Binet Intelligence Scales* keng tarqaldi⁵. Ushbu test bugungi kunda ham ko'plab mamlakatlarda asosiy IQ baholash usuli sifatida qo'llanilmoqda. IQ testlari vaqt o'tishi bilan nafaqat ta'lim tizimida, balki psixologik diagnostika, kadrlar tanlovi, harbiy xizmat va boshqa ko'plab sohalarda ham qo'llaniladigan muhim vositaga aylandi.

Bugungi kunda mustaqil taraqqiyot yo'lidan borayotgan yurtimizning fan-texnika va ilg'or texnologiya yutuqlaridan foydalangan holda yosh avlodga ta'lim va tarbiya berishning maqsad, mazmun, uslub va vositalarini ilmiy jihatdan ta'minlash dolzarb muammolarning biri hisoblangan.

Shuningdek davlatimiz rahbari ham o'z nutqlarida "Qanchalik qiyin bo'lmasin, biz yoshlar tarbiyasi bo'yicha o'zimizga xos va ta'sirchan, bugungi kunga hamohang usullarni izlab topishimiz kerak"⁶– deya ta'kidlab o'tganlar.

IQ yoki aqliy qobiliyat darajasi insonlarning hayotida muhim omil hisoblanadi. Mantiqiy savol va testlar yechish orqali aqliy qobiliyatni rivojlantirish mumkin.

IQ testlari bolalarning intellektual salohiyatini aniqlashda muhim vosita sifatida qaraladi. Ular bolaning mantiqiy fikrlashi, muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyati, xotirasi va tafakkur tezligini baholash imkonini beradi. Ayniqsa, boshlang'ich maktab yoshidagi bolalarda bu kabi ko'nikmalar endi shakllanayotgan bosqichda bo'lganligi sababli, IQ testlari orqali ularning rivojlanish darajasini erta aniqlash imkoniyati mavjud.

Intellektual salohiyat bu — bolaning o'rganish, anglash, solishtirish, tahlil qilish, va yangi ma'lumotlarga moslashish qobiliyatini o'z ichiga oladi. IQ testlari ushbu ko'nikmalarning qanchalik shakllanganligini aniqlab beradigan mexanizm sifatida pedagogik tashxis jarayonida keng qo'llaniladi. Masalan, vizual-mantiqiy testlar, so'z boyligini baholovchi topshiriqlar, yoki shakllar asosida muammoli savollar bolalarning tafakkur darajasini ochib beradi⁷.

Amaliyotda IQ testlari quyidagi maqsadlarda qo'llaniladi:

- iqtidorli bolalarni erta aniqlash va ularning rivojlanishini qo'llab-quvvatlash;

³ Binet, A., & Simon, T. (1905). *Methodes nouvelles pour le diagnostic du niveau intellectuel des anormaux*.

⁴ Stern, W. (1912). *The Psychological Methods of Testing Intelligence*. Educational Psychology Monographs.

⁵ Terman, L. M. (1916). *The Measurement of Intelligence: An Explanation of and a Complete Guide for the Use of the Stanford Revision and Extension of the Binet-Simon Intelligence Scale*. Boston: Houghton Mifflin.

⁶ O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyevning O'zbekiston yoshlari forumida so'zlagan nutqi. 25.12.2020 y.

⁷ Kaufman, A. S., & Kaufman, N. L. (2004). *Essentials of Psychological Testing*. Wiley.

- maxsus pedagogik ehtiyojga ega bolalarni aniqlash va ularga mos ta'lim strategiyalarini tanlash;
- o'quvchilarning individual o'ziga xosliklarini tushunish orqali differensial yondashuvni tashkil qilish.

Shuningdek, IQ testlari yordamida o'qituvchilar har bir o'quvchining kuchli va zaif jihatlarini aniqlab, ularga moslashtirilgan metodikalar asosida dars jarayonini olib borishlari mumkin. Bu esa bolalarning o'qishga bo'lgan qiziqishini oshirib, individual yondashuvni kuchaytiradi⁸.

Boshlang'ich sinf o'quvchilari orasida individual farqlar juda sezilarli bo'lib, har bir bola o'ziga xos intellektual salohiyat bilan ajralib turadi. IQ testlari aynan shu qobiliyatlarni aniqlashda samarali vosita hisoblanadi. Bu testlar orqali o'quvchilarning mantiqiy, verbal, vizual, matematik va muammoli vaziyatlarni hal qilish qobiliyatlari baholanadi. Natijalar esa o'quvchilarning kuchli va zaif tomonlarini aniqlab, ularga moslashtirilgan ta'lim strategiyalarini tanlash imkonini beradi. Bunday yondashuv ta'limda **differensiallik** tamoyilini amalga oshirishga xizmat qiladi. Ya'ni, yuqori IQ ko'rsatkichiga ega o'quvchilarga murakkab topshiriqlar, pastroq ko'rsatkichiga ega bolalarga esa soddalashtirilgan, ko'maklashuvchi materiallar berilishi mumkin⁹. Bu esa ta'lim jarayonini har bir bolaning ehtiyojiga moslab tashkil qilish imkonini beradi.

Shuningdek, IQ testlari **iqtidorli o'quvchilarni erta aniqlash** uchun muhim vosita hisoblanadi. Aqliy salohiyati yuqori bo'lgan bolalar odatda dars materialini tez o'zlashtiradi, ijodiy fikrlaydi va muqobil yechimlar taklif eta oladi¹⁰. Bunday o'quvchilarga alohida e'tibor qaratish, ularning bilimga bo'lgan chanqoqligini rag'batlantirish orqali iqtidorni erta rivojlantirish mumkin. Shu tarzda bunday, IQ testlari boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning individual rivojlanishini chuqur o'rganish, ularning imkoniyatlarini aniq belgilash va ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil qilish uchun muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi. Bunday yondashuv ta'limda **differensiallik tamoyilini** amalga oshirishga xizmat qiladi. Ya'ni, yuqori IQ ko'rsatkichiga ega o'quvchilarga murakkab topshiriqlar, pastroq ko'rsatkichiga ega bolalarga esa soddalashtirilgan, ko'maklashuvchi materiallar berilishi mumkin. Bu esa ta'lim jarayonini har bir bolaning ehtiyojiga moslab tashkil qilish imkonini beradi¹¹.

Ushbu fikrlarni O'zbekistonlik mutaxassislar ham qo'llab-quvvatlaydi. Masalan, **Ikhtiyor Joldasov** (Chirchiq davlat pedagogika universiteti) IQ testlarini o'quvchilarning aqliy rivojlanishini aniqlashda muhim vosita sifatida baholaydi. Uning

⁸ Neisser, U. et al. (1996). *Intelligence: Knowns and Unknowns*. American Psychologist.

⁹ Gardner, H. (1983). *Frames of Mind: The Theory of Multiple Intelligences*. New York: Basic Books.

¹⁰ Tomlinson, C. A. (2001). *How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms*. ASCD.

¹¹ Tomlinson, C. A. (2001). *How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms*.

ta'kidlashicha, bu testlar orqali o'quvchilarning individual qobiliyatlari aniqlanib, ularga mos ta'lim strategiyalarini ishlab chiqish mumkin¹².

Mavlonova (Jizzax davlat pedagogika universiteti) esa boshlang'ich ta'limda baholash mezonlarini psixologik yondashuv asosida qayta ko'rib chiqish zarurligini ta'kidlaydi. Uning fikricha, IQ testlari o'quvchilarning intellektual salohiyatini aniqlashda yordam beruvchi vosita sifatida ta'lim tizimiga integratsiya qilinishi kerak¹³.

Bundan tashqari, **“Boshlang'ich ta'lim muammolari va ularni hal etish yo'llari”** to'plamida ham IQ testlari orqali o'quvchilarning mantiqiy fikrlash qobiliyatini rivojlantirish masalasi yoritilgan bo'lib, ularning fikricha, bu testlar fikrlashni baholashda samarali vosita bo'lib xizmat qiladi¹⁴.

Shu tariqa, IQ testlari boshlang'ich ta'limda o'quvchilarning individual rivojlanishini chuqur o'rganish, ularning imkoniyatlarini aniq belgilash va ta'lim jarayonini shaxsga yo'naltirilgan tarzda tashkil qilish uchun muhim pedagogik vosita bo'lib xizmat qiladi¹⁵.

Hammaga ma'lumki, aksariyat IQ testlarning negizida asosan matematika fani turadi. Boshlang'ich sinf matematika darslarida IQ testlaridan foydalanish, o'quvchilarga mantiqiy ko'nikma va muammolarni hal qilish uchun qiziq va samarali usullar ko'rsatadi. IQ testlarining bir qismi o'quvchilarning tahlil qilish, tasniflash, taqqoslash va muammolar uchun yechim topish qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan. Boshlang'ich sinf matematika darslarida o'quvchilarning ravishda oshishini baholash va monitoring qilish uchun IQ testlaridan foydalanish juda foydali bo'lishi mumkin. IQ testlari o'quvchilarning o'zlarining individual rivojlanish darajasini aniqlashda yordam beradi. IQ testlarining natijalari o'quv jarayonini adaptatsiya qilishga yordam beradi. Masalan, o'quvchilarning qiziqishlariga va muvaffaqiyatiga ko'ra dars materialini moslashtirish uchun individual ta'lim rejalarini belgilashda yordam beradi.

IQ testlaridan namunalar:

1)Shaklni davom ettirish (Figure Completion / Series)

Maqsad: Geometrik naqshlar asosida ketma-ketlikni tushunish va davom ettirish qobiliyatini tekshiradi.

Misol:

1. ▲, ■, ●, ▲, ■, ?

Javob variantlari:

A) ● B) ■ C) ▲ D) ◆

¹² Joldasov, I. (2022). *Boshlang'ich ta'limda IQ testlaridan foydalanish samaradorligi*. Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy jurnali, №3..

¹³ Mavlonova. (2021). *Boshlang'ich ta'limda baholash mezonlari va psixologik talablar*. Jizzax davlat pedagogika universiteti.

¹⁴ O'zbekiston Respublikasi Xalq ta'limi vazirligi (2021). *Boshlang'ich ta'lim muammolari va ularni hal etish yo'llari*. Ilmiy-uslubiy to'plam.

¹⁵ Freeman, J. (1998). *Educating the Very Able: Current International Research*. London: OFSTED.

Tahlil: Naqsh: $\blacktriangle \rightarrow \blacksquare \rightarrow \bullet$ ketma-ketlikda takrorlanmoqda. 6-element bu yerda $\bullet$ bo'ladi — **javob: A) $\bullet$**

2) Ravenning Progressiv Matritsalar (Raven's Progressive Matrices)

Maqsad: Mantiqiy fikrlash va naqshlardagi munosabatni aniqlash qobiliyatini o'lchaydi.

Misol:

Quyidagi kvadratlar ketma-ketligida oxirgi bo'sh hujayraga qaysi shakl mos keladi?

[$\blacksquare$ $\square$ $\blacksquare$]

[$\square$ $\blacksquare$ $\square$]

[$\blacksquare$? $\blacksquare$]

Javob variantlari:

A) $\blacksquare$ B) $\square$ C) $\circ$ D) $\bullet$

Tahlil: Har bir qatorda qora va oq kataklar muqobil ravishda joylashgan. Oxirgi qatorning markaziy katagida oq katak bo'lishi kerak — **javob: B) $\square$**

Shunday qilib, boshlang'ich sinf matematika darslarida IQ testlaridan foydalanish, o'quvchilarning mantiqiy va analitik qobiliyatlarini rivojlantirish, ularning boshlang'ich darajadagi mantiqiy rivojlanishlarini baholash va monitoring qilish, shuningdek, o'quv jarayonini adaptatsiya qilishda muhim rol o'ynaydi.

IQ testlari orqali olingan natijalar nafaqat o'quvchining umumiy intellektual darajasini, balki uning kuchli va rivojlanishga muhtoj sohalarini ham aniqlashga yordam beradi. Ushbu ma'lumotlar asosida o'qituvchi ta'lim strategiyasini moslashtirishi, individual yondashuv asosida topshiriqlar va metodlarni tanlashi mumkin. Bunday yondashuv shaxsga yo'naltirilgan ta'limning asosiy tamoyillaridan biri hisoblanadi. **Tomlinson** va **Slavin** ta'kidlaganidek, ta'limni differensiallashtirish orqali har bir o'quvchining ehtiyojiga mos o'quv muhiti yaratish mumkin¹⁶. IQ testlarining muhim jihatlaridan yana biri – bu test natijalari asosida ota-onalar bilan samarali hamkorlik qilish imkoniyatidir. Bola haqida to'g'ri axborotga ega bo'lgan ota-onalar farzandining salohiyatini to'g'ri tushunadi va uning rivojlanishiga faol hissa qo'sha oladi. **Epstein** va **Hoover-Dempsey** tadqiqotlarida ota-onalarning o'quv jarayoniga jalb qilinishi o'quvchining motivatsiyasi va o'ziga bo'lgan ishonchini kuchaytirishi qayd etilgan. O'qituvchi bilan ota-ona o'rtasidagi barqaror aloqa bolaning to'laqonli intellektual o'sishini ta'minlashda muhim vositaga aylanadi¹⁷.


Farg'ona viloyati Qo'qon shahar 6-umumiy o'rta ta'lim maktabining 1-2-3-4-sinf o'quvchilarining mantiqiy tafakkurini bilish uchun IQ testlaridan foydalanildi.

¹⁶ Epstein, J. L. (2001). School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools. Westview Press.

¹⁷ Hoover-Dempsey, K. V., & Sandler, H. M. (1997). Why Do Parents Become Involved in Their Children's Education? Review of Educational Research, 67(1), 3–42.

IQ test¹⁸

3-jadval



Respondent 124 ta. Bunda boshlang'ich sinflarning IQ darajalari tekshirib ko'rilganda 4-sinf o'quvchilari eng yuqori ko'rsatkichni berdi.

Xulosa qilib aytish mumkinki, IQ test materiallaridan unumli foydalanish boshlang'ich sinflarda matematika darslarini sezilarli darajada oshirish imkonini beradi. Turli IQ test materiallarini o'z darslariga kiritish orqali o'qituvchilar o'quvchilarga matematik ko'nikmalarini mashq qilish va qo'llash, zaif tomonlarini aniqlash va shaxsiy fikr-mulohazalarni olish imkoniyatini taqdim etishi mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Wechsler, D. (2003). *Wechsler Intelligence Scale for Children – Fourth Edition (WISC-IV)*. San Antonio, TX: The Psychological Corporation.
2. Tomlinson, C. A. (2001). *How to Differentiate Instruction in Mixed-Ability Classrooms*. Alexandria, VA: ASCD.
3. Slavin, R. E. (2009). *Educational Psychology: Theory and Practice* (9th ed.). Boston, MA: Pearson Education.
4. Epstein, J. L. (2001). *School, Family, and Community Partnerships: Preparing Educators and Improving Schools*. Boulder, CO: Westview Press.
5. Hoover-Dempsey, K. V., & Sandler, H. M. (1997). Why do parents become involved in their children's education? *Review of Educational Research*, 67(1), 3–42. <https://doi.org/10.3102/00346543067001003>
6. Joldasov, X. (2022). Boshlang'ich ta'limda IQ testlarining ahamiyati. *Chirchiq davlat pedagogika universiteti ilmiy jurnali*, 3(1), 45–49.

¹⁸ Muallif ishlanmasi.

7. Mavlonova, D. (2021). O'quvchilar intellektini baholashda psixologik yondashuvlar. *Jizzax davlat pedagogika universiteti ilmiy axborotnomasi*, 2(4), 112–116.
8. “Boshlang'ich ta'lim muammolari va ularni hal etish yo'llari” (2023). Respublika ilmiy-uslubiy to'plam. Toshkent: “Ilm Ziya” nashriyoti.
9. Saidaxon, D. (2023). Boshlang'ich ta'limda STEAM texnologiyasini qo'llash. University Research Base, (sahifalar ko'rsatilmagan).